

TOTAL INOPERABEL BELMOLI BEMORLARNI ESTETIK REABILITATSUYASI

Yo'ldoshev Jasurbek Temur o'g'li

*Andijon Davlat Tibbiyot Instituti
Oftalmologiya kafedrasida assistenti*

Mavzuning dolzarbligi: Shox parda ko'zning tashqi qobig'ining shaffof tomirsiz qismi. Shox pardaning vazifasi yorug'lik nurlarini o'tkazish va qaytarish, shuningdek, ko'zning ichki qismlarini salbiy tashqi ta'sirlardan himoya qilishdan iborat. Shox parda diametri o'rtacha 11,0 mm, qalinligi 0,5 mm dan (o'rtasida) 1,0 mm gacha, nur sindirish kuchi taxminan 43,0 dioptriyaga teng. Normada shox parda shaffof, silliq, yaltiroq, sharsimon va juda sezgir to'qima. Noqulay tashqi omillarning shox pardaga ta'siri ko'z qovoqlarining reflektor qisqarishini keltirib chiqaradi va ko'z olmasini himoyasini ta'minlab beradi (korneal refleks) [1].

Shox parda 5 qavatdan iborat: oldingi epiteliya, boumen membranasi, stroma, destemet membrana va orqa epiteliy. Oldingi qavat ko'p qavatli tekis keratinlashtirmaydigan epiteliy himoya funksiyasiga ega va shikastlanganda kun davomida to'liq tiklanadi.

Limb-shox pardaning skleraga o'tish joyi. Bu kengligi taxminan 0.75-1.0 mm bo'lgan shaffof xalqadir. Qalinlashgan qismiida Shlemm kanali joylashgan. Limb shox parda va skleradagi turli patologik jarayonlarni tavsiflashda, shuningdek jarrohlik aralashuvlarni amalga oshirishda yaxshi mintaqaga bo'lib xizmat qiladi [2].

Mavzuning maqsadi: Shox parda belmosini turlarini, kelib chiqish sabablarini o'rganish. Xamda shox parda belmosini Andijon viloyati aholisi orasida tarqalishini o'rganish va total belmosi bor bemorlarni muammolariga kosmetik jihatdan yechim taklif qilish.

Tadqiqot usullari va materiallari: Shox parda belmosida keratoplastika jarrohlik amalyoti o'tkazib bo'lmaydigan hollarda, bemorlarni oqargan chandiqli shox pardasiga estetik jihatdan chiroyli ko'rinish berish uchun keratopigmentatsiya usulini qo'llash, hamda bu usulni yanada takomillashtirish.

Tadqiqot natijalari: Ilmiy tekshirish usullari orqali shox parda total belmosida keratopigmentatsiya usulini amalyotda o'rganish, hamda bu usul orqali qisqa vaqt ichida ko'zlangan maqsadga erishish.

Xulosa: Nazarda tutilgan keratopigmentatsiya usuli yordamida qisqa muddatda shox parda total belmosi muammosiga kosmetik jihatdan yechim beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Yuldasheva. Ko'z anatomiyasi, 6, Toshkent: Cho'lpon — 8-9 bet. ISBN 978-9943-05-869-9.
2. Muxamadiyev. Shox parda, Toshkent, 2020 — 40 bet. ISBN 418-49908-2020.